

Prezident zamonaviy darsliklar ko'rgazmasi bilan tanishdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-dekabr kuni “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’llidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko’rgazmasi bilan tanishdi.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir, degan edi Shavkat Mirziyoyev. Shuning uchun bu sohaning barcha bosqichlari tubdan isloh qilinib, kompleks rivojlantirilmoqda. Mamlakatimizning Taraqqiyot strategiyasida to’rtinchchi ustuvor yo’nalish aynan ta’lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga mutanosib ravishda 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”, deb nom berildi.

Ta’lim sifatini oshirish, bolalarni o’qishga qiziqtirishning muhim omili, birinchi navbatda, yaxshi darslik. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o’qitish metodikasini takomillashtirish vazifalari belgilangan edi. Shunga muvofiq, o’tgan uch yil davomida darsliklarni yangilash bo’yicha ish olib borildi. Maxsus ishchi guruh tomonidan ilg’or xorijiy metodika asosida 1-4-sinf kitoblari yangidan tayyorlandi.

Ko’rgazmada davlatimiz rahbariga ushbu darsliklar mazmuni haqida ma’lumot berildi. Ular XXI asr kishisi uchun eng zarur bo’lgan “4K” ko’nikmasi bo’yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya). Ya’ni, bu o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini shakllantiradi.

Yangi darsliklarni tayyorlashda PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalar asos qilib olingan. Darslik bilan birga mashg’ulot daftarlari, o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalar ham chop etilgan. Shuningdek, bu tizimga Estudy elektron ta’lim platformasi integratsiya qilingan. Undan dars paytida ham, bo’sh vaqtida ham foydalanish mumkin.

Prezident yangi darsliklar bilan tanishib, ularning mazmuni yuzasidan tavsiyalar berdi.

- Dunyo pedagoglari tajribasidan foydalangan yaxshi. Shu bilan birga, darsliklarda milliy g’oya, ajdodlarimiz

merosi ham bo'lishi kerak. Masalan, jadid bobolarimiz ta'lif bo'yicha qancha ishlar qilgan. Yaqinda Elbekni o'qidim. «Qiz bolani o'qitgan davlat butun jamiyatni o'qitgan bo'ladi» deb yozgan ekan. Bizning darsliklарimizda bunday gaplar yo'q-ku. Nima demoqchiman? Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. Bugungi ta'lif qirq yildan keyin biz haqimizda so'zlaydi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Darsliklarni amalda tatbiq qilish masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Mazkur yangi darsliklar xalqaro ekspertizadan o'tkazilib, poytaxtimizdagi 134-maktabda sinab ko'rildi. Birlamchi natijalarga ko'ra, ular asosida o'qitilgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 88 foizni tashkil etdi. Amaldagi dastur bo'yicha esa bu 67 foiz, xolos. Ko'rgazmada mazkur darslik sinovdan o'tkazilgan boshlang'ich sinf darsi namoyish etildi. Bu maktabda inklyuziv ta'lif tizimi asosida alohida ehtiyoji bor o'quvchilar ham barcha bolalar bilan birga saboq olmoqda.

Davlatimiz rahbari o'qituvchi va bolalar bilan suhbatlashdi.

Manba